

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEKNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

Ro'yhatga olindi: № 79
2025 yil "29" 04

TASDIQLAYMAN
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
Dj Sultanov
2025 yil "29" 04



**MENEJMENTGA KIRISH
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohalari: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohalari: 410 000 – Biznes va boshqaruv

Ta'lim yo'nalishlari: 60410800– Menejment

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi INTMAN6	O'quv yili 2025-2026	Semestr 4	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan/modullar nomi (semestrlar)	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Menejmentga kirish	60	90	150
2.	<p>I. Fanning mazmuni</p> <p>"Menejmentga kirish" fanining maqsadi — talabalarda zamonaviy menejment nazariyasi va amaliyotiga oid fundamental bilimlarni shakllantirish, boshqaruv faoliyatining mohiyati, tamoyillari va funksiyalari haqida tizimli tasavvur hosil qilish, shuningdek, tashkilotlarda samarali boshqaruvni amalga oshirishga doir nazariy va amaliy ko'nikmalarni egallashlariga ko'maklashishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – talabalarda menejment fanining predmeti, obykti va metodologik asoslariga doir ilmiy tushunchalarni shakllantirish, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish orqali boshqaruv konsepsiyalarining evolyutsiyasini ochib berish, boshqaruv faoliyatining asosiy funksiyalari — rejalashtirish, tashkil etish, yetakchilik, motivatsiya va nazoratning nazariy hamda amaliy jihatlarini tizimli o'rganish, ularning tashkilot faoliyatidagi o'zaro bog'liqligini tahlil qilish, tashkilot tuzilmasi, menejerlik darajalari, boshqaruv uslublari va tashkiliy xulq-atvor masalalarini chuqur tahlil qilish orqali samarali boshqaruv tamoyillarini yoritish, menejment jarayonida qaror qabul qilish mexanizmlarini, strategik va operativ rejalashtirish usullarini hamda boshqaruvda axborot va kommunikatsiyaning rolini ilmiy asosda yoritish, bozor iqtisodiyoti va globallashtirish sharoitida tashkilotlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda menejmentning zamonaviy yondashuvlari va innovatsion boshqaruv texnologiyalarining ahamiyatini ochib berish, talabalarda mustaqil tahliliy fikrlash, boshqaruv muammolarini aniqlash va ularning ilmiy asoslangan yechimlarini ishlab chiqish, jamoada ishlash va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularni tashkil etish va chuqur o'rganishdan iborat.</p> <p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</p> <p>1-MAVZU: Menejmentga kirish Menejment tushunchasi va mohiyati, menejmentning maqsadi va vazifalari, menejmentning asosiy funksiyalari, menejer roli va malakasi</p> <p>2-MAVZU: Menejment nazariyalarining rivojlanish bosqichlari Klassik yondashuvlar, xulq-atvor yondashuvi, zamonaviy yondashuvlar, sistemali</p>			

va kontingensiya yondashuvi

3-MAVZU: Individual farqlar va ularning ish faoliyatiga ta'siri

Shaxsning asosiy xususiyatlari, shaxs tiplari va temperament, qobiliyat va bilimlar, ishdagi individual farqlarni boshqarish

4-MAVZU: Ishga motivatsiya: nazariyalar va amaliyot

Motivatsiya tushunchasi, kontent va jarayon nazariyalari, ichki va tashqi motivatorlar, motivatsiya dasturlarini tuzish

5-MAVZU: Ishga bo'lgan munosabat va xulq-atvor

Ishdan qoniqish tushunchasi, tashkilotga sadoqat, xulq-atvor turlari, munosabatni boshqarish strategiyalari

6-MAVZU: Xodimlarning farovonligi

Psixologik farovonlik, ishdagi stress va uning oqibatlari, stressni boshqarish usullari, qo'llab-quvvatlovchi dasturlar

7-MAVZU: Guruhlar va jamoalarda ish faoliyati

Guruh tushunchasi va turlari, guruhda rol va dinamikalar, samarali jamoa qurish bosqichlari, jamoaviy qaror qabul qilish

8-MAVZU: Yetakchilik va uning turlari

Yetakchilik va menejment farqi, yetakchilik nazariyalari, transformatsion yetakchilik

9-MAVZU: Ish o'rnini loyihalash (Job Design)

Ish dizayni tushunchasi, ishni boyitish va kengaytirish, muhimlik va natijaning ko'rinariligi, zamonaviy ish dizayni yondashuvlari

10-MAVZU: O'zgarishlarni boshqarish

O'zgarish mohiyati va zarurati, o'zgarish turlari, qarshilik va uni yengish, Kotter va Levinning modellari

11-MAVZU: Qaror qabul qilish jarayoni

Qaror tushunchasi va turlari, qaror qabul qilish bosqichlari, individual va guruh qarorlar, qaror qabul qilishda xatoliklar va ularni bartaraf etish

12-MAVZU: Kompaniya madaniyati va qiymatlari

Tashkilot madaniyati tushunchasi, madaniyat turlari (Handy, Hofstede), madaniyatning ish faoliyatiga ta'siri, madaniyatni shakllantirish va o'zgartirish

13-MAVZU: Tashkiliy struktura va dizayn

Tashkiliy struktura tushunchasi, struktura turlari (funktional, bo'limlar, matritsali), markazlashganlik va markazlashmaganlik, strukturani tanlash mezonlari

14-MAVZU: Menejmentda kommunikatsiya

Kompaniyada kommunikatsiya roli, rasmiy va norasmiy kommunikatsiyalar, muloqot turlari va usullari, kompaniyada samarali kommunikatsiya strategiyasi

15-MAVZU: Menejmentda innovatsiyalar va raqamli transformatsiya

Innovatsiya va texnologik yangilanishlar, raqamli menejment va platformalar, innovatsion madaniyat yaratish, innovatsiyalarni boshqarish bosqichlari

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Menejmentga kirish

2. Menejment nazariyalarining rivojlanish bosqichlarini o'rganish
3. Individual farqlar va ularning ish faoliyatiga ta'siri tushunchasi
4. Ishga motivatsiya: nazariyalar va amaliyotni qo'llash yo'llari
5. Ishga bo'lgan munosabat va xulq-atvor omillari
6. Xodimlarning farovonligi mezonlarini aniqlash
7. Guruhlar va jamoalarda ish faoliyatini tashkil etish usullari
8. Yetakchilik va uning turlarini shakllantirish
9. Ish o'rnini loyihalash (Job Design) usullarini aniqlash
10. O'zgarishlarni boshqarish mohiyati va zarurati
11. Qaror qabul qilish jarayonini tashkil etish
12. Kompaniya madaniyati va qiymatlarini aniqlash
13. Tashkiliy struktura va dizayn ishlab chiqish omillari
14. Menejmentda kommunikatsiya turlari va usullari
15. Menejmentda innovatsiyalar va raqamli transformatsiyani qo'llanilishi

IV. Mustaqil ta'limning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Menejment fanining predmeti va boshqa fanlar bilan aloqasi
2. Menejment nazariyasining rivojlanish bosqichlari va asoschilari
3. Klassik, zamonaviy va post-zamonaviy menejment yondashuvlari
4. Menejment funksiyalarining tahlili (rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat)
5. Menejning kasbiy roli va kompetensiyalari
6. Tashkilotning ichki va tashqi muhiti: omillar va ularning ta'siri
7. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish usullari va vositalari
8. Liderlik nazariyalari va rahbarlik uslublari
9. Motivatsiya nazariyalari: amaliy tahlil (Maslow, Herzberg, McGregor)
10. Boshqaruvda samarali kommunikatsiya va axborot tizimlari
11. Jamoa va jamoaviy boshqaruv: rollar, nizolar va yechimlar
12. Tashkiliy tuzilma: chiziqli, funksional, matrisa va boshqa modellari
13. Strategik menejment: asosiy tushunchalar va bosqichlar
14. Innovatsion boshqaruv va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash
15. Biznesda stress va mojarolarni boshqarish usullari
16. Etik va ijtimoiy mas'uliyatli menejment tamoyillari
17. Korxonada faoliyatida menejning kundalik faoliyati
18. Xalqaro menejment va transmilliy kompaniyalar tajribasi
19. Raqamli menejment: sun'iy intellekt va avtomatlashtirish jarayonlari
20. Global menejment tendensiyalari va kelajakdagi yo'nalishlar

3.	<p>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <p>Menejment fanining predmeti, maqsadi va funksiyalarini ilmiy asosda tushunadi va izohlab bera oladi.</p> <p>Tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, ichki va tashqi muhitini tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi.</p> <p>Boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, tashkil etish, yetakchilik, nazorat)ni amaliy misollar asosida qo'llay oladi.</p> <p>Strategik va operativ qarorlar qabul qilish mexanizmlarini tushunadi va ularni ishlab chiqish tajribasini egallaydi.</p> <p>Tashkilotlarda samarali kommunikatsiyani tashkil etish va axborot almashinuvi tamoyillarini qo'llay oladi.</p> <p>Motivatsiya nazariyalari va amaliy yondashuvlarni o'zlashtirib, xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar bera oladi.</p> <p>Liderlik va rahbarlik uslublarini ajrata oladi hamda jamoa boshqaruvida qo'llay oladi.</p> <p>Ijtimoiy mas'uliyatli va axloqiy menejment tamoyillarini hisobga olgan holda qarorlar qabul qiladi.</p> <p>Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda boshqaruv samaradorligini oshirishga harakat qiladi.</p> <p>Jamoaviy ishda ishtirok etish va boshqalarni boshqarish bo'yicha malakaga ega bo'ladi.</p> <p>Stress va mojarolarni boshqarish strategiyalarini amaliyotda qo'llay oladi.</p> <p>Global menejment tendensiyalari haqida tushunchaga ega bo'ladi va xalqaro amaliyotni tahlil qilish bo'yicha malakaga ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa (guruh) bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriklarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish talab etiladi.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Maxkamova, M.A. Menejment asoslari : o'quv qo'llanma / M. A. Maxkamova. - T. : TATU, 2006.</p>



Introduction to Management and Organizational Behavior Adopted by Barbara Carlin and Marina Sebastijanovic, Source: OpenStax 2017

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Anderson, R. David, Sweeney, J. Dennis, Williams, A. Thomas (2022), An Introduction to Management Science: Quantitative approaches to Decision Making, 15/e; New Delhi: Cengage Learning Reference Books
 2. Bharti Motwani (2022). Data Analytics using Python, 1/e; New Delhi: Wiley
 2. Hiller, S. Frederick and Hiller, S. Mark (2019).
 3. Introduction to Management Science A Modeling and Case Studies Approach with Spreadsheets, 5/e; New Delhi: McGrawHill Education
 4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
 5. Muxamedov F., Qudratova F. Raqamli banking va uning mamlakatimiz iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. "Vneshinvestprom".Tashkent.: 2022.- 220 bet.
 6. Axborot manbaalari
 7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
 8. www.tfi.uz – Toshkent moliya instituti rasmiy sayti
 9. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
 10. www.ifrs.org (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Kengashi rasmiy sayti)
 11. O'quv dasturini yaratish uchun foydalanilgan manbalar Syllabus
<https://www.wgtn.ac.nz/business/current-students/study-resources/course-outlines/2005/trimester-3/mgmt/mgmt101-course-outline.pdf>
University <https://find-mba.com/specializations>
Top-300 QS-244 <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings?page=8>
<https://www.wgtn.ac.nz/courses/mgmt/101/2025/offering?crn=8508>
<https://www.adelaide.edu.au/course-outlines/107436/1/sem-2/2018/>
King's College London (KCL) 2025-yilgi QS reytingida KCL 46-o'rinda.
<https://www.kcl.ac.uk/abroad/module-options/module?id=c00846a4-c899-4f71-beb8-406ed6ac5a74>
7. O'quv dasturi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Kengashining 2025-yil 29.04. dagi 29/04/2025 bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8. **Fan/modul uchun ma'sullar:**
Ismoilova G.F. - Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri, i.f.n.

	<p>dotsent Tursunova M.T.- Muhammad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Menejment va marketing” kafedrası katta o‘qituvchisi</p>
9	<p>Taqrizchilar: Shaislamova M.R.-Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Menejment va Marketing” kafedrası v.b.dotsenti, PhD H.H.Egamberdiyev Alfraganus University OTM Iqtisodiyot kafedrası, i.f.f.d., dotsent</p>

